

O'ZBEKISTONDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH – BARQAROR TARIXIY TARAQQIYOT ASOSI SIFATIDA

Sharifov Sherali Alisher o'g'li
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
magistratura 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishning barqaror tarixiy taraqqiyotdagi o'rni tahlil qilinadi. Inson kapitali ta'lim, sog'liqni saqlash va innovatsiyalar orqali iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanishning asosiy omili sifatida ko'rsatiladi. Shuningdek, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar va davlat dasturlarining inson salohiyatini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan.

Аннотация: В статье анализируется роль развития человеческого капитала в устойчивом историческом развитии Узбекистана. Человеческий капитал рассматривается как ключевой фактор экономического и социального прогресса через образование, здравоохранение и инновации. Также раскрывается значение проводимых в стране реформ и государственных программ по повышению человеческого потенциала.

Annotation: The article analyzes the role of human capital development in the sustainable historical progress of Uzbekistan. Human capital is considered a key factor in economic and social development through education, healthcare, and innovation. The significance of ongoing reforms and state programs aimed at enhancing human potential in the country is also highlighted.

Kalit so'zlar: inson kapitali, barqaror taraqqiyot, ta'lim, innovatsiya, O'zbekiston.

Ключевые слова: человеческий капитал, устойчивое развитие, образование, инновации, Узбекистан.

Keywords: human capital, sustainable development, education, innovation, Uzbekistan

XXI asr iqtisodiyotida milliy taraqqiyotning asosiy omili tabiiy resurslar emas, balki inson kapitali ekani barcha xalqaro tadqiqotlarda tasdiqlangan. Jahon banki hisob-kitoblariga ko'ra, mamlakatlar boyligining o'rtacha 64 foizi inson kapitaliga, 20 foizi tabiiy resurslarga, 16 foizi esa fizik kapitalga to'g'ri keladi. Demak, inson salohiyatini rivojlantirish – iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli kafolati hisoblanadi.

Jahon bankining "Human Capital Index 2020" hisobotiga ko'ra, inson kapitali yuqori bo'lgan davlatlar barqaror iqtisodiy o'sishga erishib, milliy daromadda yuqori ko'rsatkichlarni ta'minlamoqda. Masalan, Finlyandiya, Singapur va Janubiy Koreya

kabi mamlakatlarda inson kapitali indeksi 0,8-0,9 darajani tashkil etsa, ayrim rivojlanayotgan davlatlarda bu ko'rsatkich 0,5 dan past.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim sohasida oliy ta'lim qamrovi 2017 yilda 8,3 foiz bo'lgan bo'lsa, 2024/2025 o'quv yilga kelib 47,7 foizga yetdi. Bu ko'rsatkich Markaziy Osiyo mamlakatlari ichida eng yuqori sur'atda o'sishdan dalolat beradi. Xalqaro reytinglarda ham ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda: QS World University Rankings ro'yxatida bir qator O'zbekiston universitetlari ilk marta paydo bo'ldi, bu esa milliy oliy ta'lim tizimining xalqaro raqobatga kirib borayotganini ko'rsatadi. Sog'liqni saqlash sohasida ham inson kapitaliga sarmoya sezilarli darajada ortmoqda. Davlat budjeti xarajatlarida sog'liqni saqlash ulushi 2016 yilda 9 foiz bo'lgan bo'lsa, 2025 yilda 15 foizdan oshgani ma'lum. Tibbiy xizmat qamrovi kengayib, onalar va bolalar salomatligi ko'rsatkichlari yaxshilanmoqda. Mehnat bozorida esa yangi siyosatlar orqali inson kapitaliga investitsiya kuchaymoqda. Hozirgi vaqtda 200 dan ortiq kasb-hunar markazlari orqali yoshlar zamonaviy kasblarga o'qitilmoqda.

Xalqaro tajribalar ham inson kapitali taraqqiyotining iqtisodiy o'sishga ta'sirini yaqqol ko'rsatadi. Janubiy Koreya 1960 yillarda kishi boshiga yalpi ichki mahsulot bo'yicha 100 dollar atrofida bo'lgan holda, ta'lim va inson kapitaliga ustuvor sarmoya orqali 2023 yilda bu ko'rsatkichni 35 ming dollardan oshirishga erishdi. Finlyandiya ta'lim tizimida islohotlar amalga oshirib, innovatsion iqtisodiyot qurdi va "Global Innovation Index" ro'yxatida yetakchi o'rinlarni egalladi. O'zbekiston uchun ham asosiy xulosa shuki, inson kapitaliga qaratilgan har bir sarmoya bu uzoq muddatli milliy taraqqiyotning eng samarali investitsiyasidir. Ta'lim, fan, sog'liqni saqlash va kasbiy tayyorgarlik yo'nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligini oshirib, iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.¹

Inson kapitali nazariyasiga muvofiq odamlar o'zlariga investitsiya kiritib, imkoniyatlarini kengaytirishlari, davlat esa inson kapitalini boyitish uchun mablag' sarflab, milliy daromadni ko'paytirishi mumkin. Bunday investitsiyalarning samaradorligi sarf qilingan mablag'larning mehnat unumdorligi ortishi va ish xaqi ko'payishi orqali qoplanishida o'z ifodasini topadi.²

Umumiy inson kapitali tug'ilgan kundan boshlab 20-25 yoshgacha ta'lim faoliyati jarayonida (oila ta'siri ostida), shuningdek, umumiy, o'rta kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarida (maktab, texnika, universitet) o'qish jarayonida shakllanadi. Ushbu shakllanish bosqichi aholi va davlat tomonidan insonni umumiy tarbiyalash investitsiyalar bilan belgilanadi. Natijada, olingan vakolatlar ko'pchilik tashkilotlarda

¹ I. Zaynutdinov, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti

² Инсон тараққиёти. Дарслик. И.ф.д., проф. Қ.Х. Абдурахмонов таҳрири остида. – Т.: Иқтисодиёт, 2012. – 542 б. 81-82 б. <http://library.ziyounet.uz/uzc/book/6389>

talabga ega. O'z navbatida, to'plangan asosiy kapital professional va ijtimoiy muhitda o'ziga xos tarkibiy qismni shakllantirish va shaxsni rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.³

Kasbiy ko'nikmalarni ish jarayonida rasmiy va norasmiy mashg'ulotlar orqali olish mumkin. Bu yerda investitsiyalar ish beruvchilarning kompaniyalari tomonidan ham, ishchilar tomonidan ixtisoslashgan markazlarda o'qish, uzluksiz ta'lim va kasbiy qayta tayyorlash davrida ham amalga oshiriladi. Ta'limni boshlaydigan kompaniya ichida katta talabga ega bo'lgan aniq bilim, ko'nikma, tajriba shakllanadi va to'planadi⁴.

Darhaqiqat, keyingi yillarda O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va xalqqa munosib turmush tarzini yaratib berishga kun tartibidagi asosiy masala sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida "Mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi darajasini va innovatsion jihatdan taraqqiy etganini belgilovchi asosiy omil sifatida inson kapitalini rivojlantirish —strategiyaning bosh maqsadidir", deb belgilab berildi.

Shu bilan birga, 2019-yilning may oyida ilm-fan va oliy ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosiga bag'ishlangan yig'ilishda Prezidentimiz mazkur sohaga oid davlat dasturlarini shakllantirish va markazlashgan tartibda moliyalashtirish orqali ilm-fanni tubdan rivojlantirish, yuksak natijadorlikka yo'naltirilgan ixtisosliklar bo'yicha milliy laboratoriyalar tizimini yaratish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, xalqaro reytinglarda mamlakatimiz fani nufuzini ko'tarish bo'yicha fikr yuritir ekan, "...Bu ishlardan asosiy maqsad mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish, xom ashyo va uni qayta ishlash bilan uzoqqa borib bo'lmaydi, qolaversa, ishlab chiqarishda qo'shimcha qiymat olish uchun ham innovatsiyalar kerak. Shu bois ilm-fan taraqqiyotimizning muhim yo'nalishi, tayanchi bo'ladi", — deb ta'kidlab o'tdi.

Soha mutaxassislarining fikriga ko'ra, ilk bolalikda investitsiya kiritish boshqa dasturlarga qaraganda eng samaralidir. Chunki inson kapitalining rivojlanish jarayonining boshlanishi 3-4 yoshga to'g'ri keladi va ushbu nuqtadan boshlab bola kelajakda o'z taqdirini o'zi belgilash va o'zini namoyon qilish qobiliyatiga ega bo'la boshlaydi, mehnat bozorida o'z qobiliyatiga murojaat qilishga o'rganadi. Shu sababdan, yurtimizda maktabgacha ta'lim sohasida alohida e'tibor qaratilmoqda.

³ Караткевич С.Г. Добрынин В.Н., Багрецов С.А. Методы формирования и оценки человеческого капитала социотехнических систем // Вопросы экономики и права. – 2011, № 7. - С. 54-58.

⁴ Устинова К.А. Губанова Е.С., Леонидова Г.В. Человеческий капитал в инновационной экономике: монография - Вологда: Институт социально- экономического развития территорий РАН, 2015. - 195 с.

Xususan, 2018-2019-yillarda nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish uchun 1 412 ta davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimlar imzolanib, ulardan 1 097 tasi bo'yicha imtiyozli kreditlar ajratildi.

Prezident tashabbusiga ko'ra, yurtimizda 2020-yilga "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilinganligi ham yurtimizda ilmiy salohiyat va ta'lim — tarbiyani taraqqiyotning poydevori sifatida qaralayotganligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, XXI asr iqtisodiyotida mamlakatlar taraqqiyotining asosiy omili tabiiy resurslar emas, balki inson kapitalidir. Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlar ma'lumotlariga ko'ra, inson kapitaliga qaratilgan sarmoyalar milliy boylikning eng katta qismini tashkil etadi va iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli kafolatidir. O'zbekistonda so'nggi yillarda ta'lim, sog'liqni saqlash, fan va mehnat bozori sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar inson salohiyatini rivojlantirishga, demak, milliy taraqqiyotning poydevorini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari, xususan, innovatsion rivojlanish strategiyasi, ilm-fan va raqamli iqtisodiyotga oid davlat dasturlari inson kapitalini yuksaltirishga yo'naltirilganini tasdiqlaydi. Shunday qilib, inson kapitaliga investitsiya kiritish O'zbekistonning barqaror iqtisodiy o'sishi va xalq farovonligini ta'minlashning eng muhim omilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I.Zaynutdinov, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti
2. Инсон тараққиёти. Дарслик. И.ф.д., проф. Қ.Х. Абдурахмонов таҳрири остида . – Т.: Иқтисодиёт, 2012. – 542 б. 81-82 б. <http://library.ziynet.uz/uzc/book/6389>
3. Караткевич С.Г. Добрынин В.Н., Багрецов С.А. Методы формирования и оценки человеческого капитала социотехнических систем // Вопросы экономики и права. – 2011, № 7. - С. 54-58.
4. Устинова К.А. Губанова Е.С., Леонидова Г.В. Человеческий капитал в инновационной экономике: монография - Вологда: Институт социально-экономического развития территорий РАН, 2015. - 195 с.